



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 4-mart

105-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–60-son qarori ijrosi haqida”gi 96-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

Yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularning startap va biznes loyihalari, g‘oya va tashabbuslarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini rag‘batlantirish, shuningdek, yoshlarga qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–60-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 96-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 96-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ–60-son qarori bilan:

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi negizida Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) huzurida davlat muassasasi shaklida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) tashkil etilganligi;

quyidagilar:

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasining asosiy vazifalari 1-ilogava muvofiq;

Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilogava muvofiq;

Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash instrumentlari (keyingi o‘rinlarda – qo‘llab-quvvatlash instrumentlari) ro‘yxati 3-ilogava muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi manbalar hisobidan 100 million AQSH dollari ekvivalentiga teng summaga yetkaziladi:

Davlat budjetidan 2025-yilda ajratiladigan 200 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘lar;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining qoldiq mablag'lari hamda ushbu jamg'arma hisobidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha olinadigan mablag'lar;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining homiylik xayriyalari;

Jamg'arma mablag'larini tijorat banklari depozitlariga belgilangan tartibda joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar; shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

a) biznes loyihalarni saralash va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga tavsiya qilish hamda Jamg'arma faoliyatini samarali tashkil etish uchun o'z sohasida yuqori natijalarga erishgan hamda samarali faoliyat yuritib kelayotgan 20 nafar tadbirkordan iborat tarkibda jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kengash (keyingi o'rinlarda – Kengash) tuzilishi;

bunda Kengash a'zolari tarkibining kamida 30 foizi yosh tadbirkorlar orasidan shakllantiriladi hamda Kengashga Agentlik direktori raislik qiladi;

b) Kengash a'zolarining kamida 50 foizidan ko'proq ovozi to'plagan biznes loyihalar (shu jumladan, ijaraga olingan obektda faoliyat yuritayotgan) saralab olingan hisoblanishi va Jamg'arma resurslari hisobidan qo'llab-quvvatlanadi (bundan 3-ilovadagi ro'yxatning 6-bandida nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlash instrumenti mustasno);

d) Jamg'arma faoliyati belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan Kengash a'zolarining kamida to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan har yili tasdiqlanadigan Jamg'arma daromadlarini shakllantirish

manbalari hamda mablag'larning qo'llab-quvvatlash instrumentlari kesimida yo'naltirilishini nazarda tutuvchi moliyaviy reja asosida tashkil etilishi; bunda:

zaruratga ko'ra mazkur yillik moliyaviy rejaga Kengash a'zolarining xuddi shunday ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadigan qarori asosida belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilishi mumkin;

moliyaviy yil yakuni bo'yicha Jamg'arma direktori tomonidan Kengashga batafsil hisobot taqdim etiladi;

e) Jamg'arma resurslari hisobidan qarorlar, bayonnomalar, topshiriq xati va boshqa hujjatlar asosida tadbirkorlik subektlari, nodavlat tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar loyihalarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishga yo'l qo'yilmaydi;

f) Jamg'arma resurslari hisobidan ajratilgan mablag'lar yuzasidan hisobotlar, shu jumladan, qo'llab-quvvatlash instrumentlari va loyihalar kesimida ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar Jamg'arma tomonidan Yoshlar ishlari agentligining rasmiy veb-saytida e'lon qilib boriladi;

j) mazkur qaror qabul qilingunga qadar tuzilgan va amalda bo'lgan Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini tasarruf etish bilan bog'liq shartnomalar bo'yicha Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining huquq va majburiyatlari Jamg'armaga o'tkazilishi;

bunda Surxondaryo viloyati yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi loyihalarni moliyalashtirish Jamg'arma tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Surxondaryo viloyatida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-400-son qarorida belgilangan tartibda hamda uning 1-bandida ko'zda tutilgan mablag'larning moliyalashtirilmagan qismi doirasida amalga oshirilishi;

h) 3-ilovadagi qo'llab-quvvatlash instrumentlari bo'yicha aniqlashtiruvchi qo'shimcha shartlar va qoidalar Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida belgilanishi mumkinligi;

belgilab qo'yilishicha, 3-ilovadagi qo'llab-quvvatlash instrumentlari ro'yxatining 6-bandida nazarda tutilgan instrument asosida Jamg'arma tomonidan qarz ajratish 2025–2026-yillarda tajriba-sinov tariqasida amalga oshirilishi va moliyalashtirish uchun 30 milliard so'm yo'naltirilishi;

Bunda:

a) mazkur qo'llab-quvvatlash instrumenti bo'yicha loyihalar alohida hisobvaraqlar orqali moliyalashtirilib, qaytgan mablag'lar o'rnatilgan tartibda yangi loyihalarga yo'naltiriladi;

b) belgilangan talablarga muvofiq keladigan va Kengash a'zolarining kamida to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan saralab olingan biznes loyihalar (shu jumladan, ijaraga olingan obektda faoliyat yuritayotgan loyihalar) mazkur qo'llab-quvvatlash instrumenti orqali moliyalashtiriladi;

d) Jamg'arma tomonidan ushbu qo'llab-quvvatlash instrumenti orqali ajratilgan mablag'larning maqsadli foydalanilishi doimiy monitoring qilib boriladi hamda ajratilgan mablag'larni qaytarish bo'yicha zaruriy choralar ko'riladi;

e) Agentlik tomonidan har chorakda mazkur qo'llab-quvvatlash instrumenti bo'yicha loyihalarga ajratilgan qarz mablag'larining o'z vaqtida qaytarilishi o'rganib boriladi va natijalariga ko'ra quyidagilarni to'xtatish masalasi ko'rib chiqish uchun Kengashga kiritiladi:

ajratilgan mablag'larning qaytarilmasligi xatarlari yuqori bo'lgan taqdirda ushbu instrument bo'yicha yangi loyihalarni moliyalashtirish;

tegishli biznes loyiha uchun ajratilgan qarz mablag'larining qaytarilmasligi xavfi yuqori bo'lgan hollarda mazkur loyihani moliyalashtirish;

belgilanishicha:

a) Jamg'arma ko'magida kamida 50 ming nafar yoshlarning bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish uning faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi;

b) Jamg'arma boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 12 nafardan iborat bo'ladi;

d) Jamg'arma direktori Kengash a'zolari orasidan umumiy ovozlari sonining kamida to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan aniqlanadi va Agentlik direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi;

e) Jamg'arma xodimlari mehnatiga haq to'lash razryadlari Agentlik markaziy apparati xodimlari uchun belgilangan razryadlardan bir pog'ona past miqdorda qo'llanadi. Bunda:

Jamg'arma xodimlari mehnatiga haq to'lashning boshqa shartlari bo'yicha Agentlik markaziy apparati xodimlari uchun belgilangan shartlar tatbiq etiladi;

Jamg'arma faoliyatini moliyalashtirish bilan bog'liq barcha xarajatlar qonunchilik hujjatlari bilan unga yo'naltiriladigan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi;

Agentlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining 4-ildavdagi ro'yxatga muvofiq daryo, kanal va sohil bo'ylarida xizmat ko'rsatish, ko'ngilochar va dam olish maskanlarini tashkil etish bo'yicha biznes loyihalarni joylashtirish uchun o'rnatilgan tartibda elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish orqali yer uchastkalarini ajratish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

bunda ushbu ro'yxatda ko'zda tutilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari ularning yer fondi toifasi qonunchilikda belgilangan tartibda o'zgartirilgandan so'ng ajratilishi inobatga olinishi;

belgilab qo'yilishicha:

a) dastlabki bosqichda 5-ildavga muvofiq tumanlarda, kelgusida boshqa hududlarda qishloq xo'jaligi yerlari ajratilgan yoshlarga xizmat ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi kooperativlari ushbu qarorda nazarda tutilgan instrumentlar asosida qo'llab-quvvatlanadi;

b) Jamg'arma tomonidan O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bilan birgalikda xorijiy tillarni o'zlashtirgan yoshlar kelgusida ularni qishloq xo'jaligi yerlari ajratilgan yoshlar mahsulotlarini eksport qilish jarayoniga keng jalb etish maqsadida qisqa muddatli kurslarda o'qitiladi;

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-son qaroriga muvofiq ijaraga berilgan yer maydonlarida yuqori daromad keltiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib, kamida 100 million so'm miqdorida daromad olgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tartib joriy etilganligi;

Agentlikning Jamg'armaga ajratiladigan mablag'lar hisobidan Jamg'arma huzurida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida ustav fondi 10 million AQSH dollari ekvivalentiga teng bo'lgan yoshlarning istiqbolli startap loyihalarini moliyalashtiradigan venchur jamg'arma (keyingi o'rinlarda – venchur jamg'arma) tashkil etish to'g'risidagi taklifga rozilik berilganligi;

3. Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (M.Mamasobirov) Jamg'arma bilan birgalikda 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-60-son qarori 3-ilovasidagi qo'llab-quvvatlash instrumentlari orqali magistral, ichki yo'llar bo'yi va jamoat joylarida (shu jumladan, sayilgohlar, turistik maskanlar, gastronomik va ijod ko'chalarida) savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini tashkil etish choralari ko'rsin.

Bunda, davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov), Kadastr agentligi tuman bo'limi (A.Shodmonov), tuman yo'llardan foydalanish korxonasi (F.Turdiboyev) bilan birgalikda:

savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, shu jumladan, ko'chma savdo va xizmat ko'rsatish obektlarini (nuqtalarini) tashkil etish uchun yer uchastkalari belgilangan tartibda onlayn auksion savdolariga chiqarish;

bir oy muddatda savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, shu jumladan, ko'chma savdo va xizmat ko'rsatish obektlarini (nuqtalarini) joylashtirish sxemasini ishlab chiqsin.

4. Tuman hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-60-son qarorining 2-ilovasidagi "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"da nazarda tutilgan topshiriqlar o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov